

“TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O’QUVCHILARGA KASHTACHILIK SAN’ATI VA KASHTADAN BUYUM TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI O’RGATISH”

M.X.Ikramova

QDPI, Texnologik ta’lim kafedrası katta o’qituvchisi,

Muxtorova Muslimaxon

QDPI Texnologik ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali O'zbek madaniyatining asosiy xazinalaridan biri bo'lgan Kashtachilik san'ati haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbek millatining boshqa millatlardan farqi – milliy hunarmandchilik namunalaridadir. Darxaqiqat, bizning milliy hunarmandchilik san'atimizdan biri bo'lgan Kashtachilik shu kungacha ko'plab davlatlar tomonidan katta qiziqish uyg'otgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: milliy, hunarmandchilik, kashtachilik, madaniyat, namuna, san'at, texnologiya, millat.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin xalq xo'jaligining barcha sohalarida, jumladan ta'lim sohasida ham ma'lum bir islohotlar o'tkazildi va o'tkazilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarni kasbga yo'llash malakali mutaxassis etib tayyorlash ishlari maktablardanoq boshlanadi. Ana shu ishlarni bajarishda Texnologiya ta'limi o'qituvchilariga ham ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda Texnologiya ta'limi darslarida maktab o'quvchilariga milliy hunarmandchilik san'atimiz to'g'risida asosiy tushunchalar berib kelinmoqda. Ana shu maqsadda Texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha o'quv rejaga muvofiq “Xalq hunarmandchiligi” fani rejaga kiritilgan. “Xalq hunarmandchiligi” fanida asosan milliy hunarmandchiligimiz haqida hamda zamonaviy hunar turlari to'g'risida ma'lumotlar berib hamda o'rgatib kelinmoqda.

Kashtado'zlik, kashtachilik — kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qad. sohalaridan biri hisoblanadi. Arxeologik topilmalar Kashtado'zlikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtado'zlikning paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Davrlar davomida toshdan suyak bigizlarga, undan metall bigizlarga o'tish bilan, shuningdek, to'qish, mato to'qish, bo'yash va boshqa ishlar bilan bog'liq.

Kashtado'zlik taraqqiyotini Qadimgi Osiyo, Yevropa, Amerika madaniy yodgorliklari, adabiy manbalardagi kashtalar tasvirida, shuningdek, saqlanib qolgan buni esa, Kashtado'zlik namunalarida kuzatish mumkin. Kashtado'zlik mahsulotlarining eng qadimgi nusxalari saqlanmagan. Kashtado'zlik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san'atning ta'siri katta bo'lgan. 11-asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalarini aks ettirilgan. 12-asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san'atining ta'siri ko'zga tashlanadi. Xitoyda 14-asrdan „syuxua“ (ignali tasvir) nomi bilan mashhur bo'lgan kashtali namoyonlar uslub jihatdan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqin.

Yevropada Kashtado'zlik Uyg'onish davrida yuqori pog'onaga ko'tarildi. Davrning buyuk rassomlari (mas, Perujino, Bottichelli va b.) kashtado'zlar uchun andazalar tayyorlab berishgan, bu esa kashtalarning badiiyligini oshirgan. Kashtado'zlikda qimmatbaho toshlardan ham foydalanilgan, ip, jun, ipak, zar va kumush suvi berilgan iplar ishlatilgan. 18-asrda Yevropada aslzodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayyorlangan va Kashtado'zlik buyumlari keng tarqalgan.

19-asrning 2-yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro etilgach, sanoati rivoj topgan mamlakatlarda Kashtado'zlik korxonalari vujudga kela boshladi, ishlab ciqarishni yo'lga

qo'yilishi an'anaviy Kashtado'zlikni inqirozga uchratdi. Kashtado'zlikdagi mavjud an'analar susayib ketdi, arzon baho mashina kashtalari katta maxorat va ko'p mehnat talab qiladigan qo'l kashtalarini siqib chiqardi. Lekin bir qancha mamlakatlarda mashina kashtasi bilan bir qatorda qo'lda kashta tikishga alohida e'tibor berilmoqda, kashtado'zlarning ishlari muzeylarni, jamoat binolarini bezamoqda.

O'rta Osiyoda Kashtado'zlik mahsulotlarining qadimgi xillari deyarli saqlanmagan. Muzeylardagi palak, so'zana, choyshab, kirpech, zardevor singari badiiy buyumlar va kashtali kiyimlar faqat 19-asrga mansub.

14—15-asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar Kashtado'zlikning bu yerda qadimdan keng rivojlanganini ko'rsatadi. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod „Zafarnoma“ qo'lyozmasiga ishlagan „Temur taxtda“ miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan.

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbek, turkman, tojik ayollari o'rtasida Kashtado'zlik keng tarqalgan. Kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlar (so'zana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta va boshqalar)ning asosiy qismlari har bir xonadonning o'zida tayyorlangan.

Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi o'zbek kashtado'zlarining katta san'atidan dalolat beradi. Nurota, Buxoro, Samarqand Kashtado'zlik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok bilan, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar Kashtado'zlik an'alariga, mahsulotning turlariga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, hozir bo'g'joma, dorpech, oynaxalta kabi ashyolar o'z ahamiyatini yo'qotdi, parangi, kaltacha kabi kiyimlarni faqat muzeylardagina uchratish mumkin. Do'ppi, sumka, nimcha, kavush, kirpech, so'zana kabi badiiy buyum va ashyolar zamonaviy did bilan bezatilmoqda, shakl va badiiy bezaklarida katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek kashtado'zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olganlar, kashtalarda o'simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi. Naqsh mujassamotida asosiy bezak matoning o'rtasida bo'lib, hoshiyalar qo'shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko'p. Ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islmiy gul (naqsh)lar Kashtado'zlikda ham ko'p uchrashi chizmakash (naqqosh)lar amaliy bezak san'atining turli sohalariga chizma (naqsh)lar tayyorlaganini ko'rsatadi.

Kashtado'zlikda chizmakashlar yaratgan naqsh(gul)lar asosida kashtado'zlar badiiy buyum yaratadilar. Kashtado'zlikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari: igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz, angishvona, chamberak va boshqalar; keng tarqalgan chok turlari esa: bosma, kandaxayol, chindaxayol, xomdo'zi, yurma, iroqi popur, ilmoq, baxya va b. (yana q. Chok).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хонбобоев, Х. О., Икромов, М. Х., & Икромов, М. А. Х. (2016). Та'limda axborot texnologiyalarni qollashning oziga xos xususiyatlari. Молодой ученый, (3-1), 21-22.
2. MUBINAKHON, I., & ANASKHON, I. M. The Importance of Using the Ict to Increase the Efficiency of Education. JournalNX, 7(1), 106-108.
3. Ikramova, M. (2022). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND METHODS IN TRAINING FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGY. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 3(9), 1-4.
4. Isaqova, Z., M. Ikramova, and M. Abdusamatova. "TO EDUCATE STUDENTS TO BE SMART, POLITE, WELL-MANNERED, INTELLIGENT AND PHYSICALLY HEALTHY IN

THE PROCESS OF LABOR EDUCATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 9.12 (2021): 868-870.

5. Ikramova, M. Kh. "USE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN" TECHNOLOGY" CLASSES." Open Access Repository 8.11 (2022): 116-120.

6. Ikramova, M. Kh. "PECULIARITIES OF USING DIGITIZED EDUCATIONAL RESOURCES IN" TECHNOLOGY" CLASSES." Open Access Repository 9.11 (2022): 208-212.

7. Alimov, B., Isaqova, Z., Ikramova, M. X., & Bo'teyev, A. (2022). DIDACTIC SHAPT-SHAPOITLAPI OF PIVOJLANTIP OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER OF THE SCIENCE OF" TECHNOLOGY". Open Access Repository, 9(11), 328-333.

8. Gulyamov, K. M., and M. H. Ikramov. "Development of artistic and creative abilities of future teachers of fine arts through computer graphics." JournalNX 7.06 (2021): 95-99.

9. Xakimjonog, Ikromov Muhammad Anasxon. "BO 'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O 'QITUVCHILARIGA "MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI" FANINI O 'QITISH JARAYONIDA ULARNING BADIY-IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI." Conferencea (2023): 34-38.